


**BUXORO VILOYATINING  
TASHQI SAVDO AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-mart\*)

2019-yil yanvar-mart oyi yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 290,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 61,5 mln. AQSH dollarga (o'sish sur`ati 26,1%) va import hajmi 228,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur`ati 1,7 %) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 167,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

**Buxoro viloyatining  
tashqi savdo aylanmasi  
(mln.AQSH dollar)**

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Shu bilan birga ta`kidlab o`tish kerakki, 2019-yilning yanvar-mart oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 12,8 mln. AQSH dollarga ko`proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 mln. AQSH dollariga ko`proqdir.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega bo`lgan 20 davlat**

(2019 yil yanvar-mart)


(mln. AQSH dollarri)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Rossiya	80,3	6,7	73,6	27,7	55,4
Turkmaniston	57,3	1,5	55,8	19,8	2,0 b
Xitoy	45,8	9,7	36,2	15,8	109,7
Eron	33,4	26,2	7,2	11,5	134,6
Turkiya	13,7	1,3	12,4	4,7	3,2 b
Qozog`iston	9,2	4,8	4,3	3,2	185,2
Germaniya	7,4	0,0	7,4	2,5	114,9
Koreya	7,1	0,1	7,0	2,5	4,5 b
AQSH	5,7	0,0	5,7	2,0	84,5 b
Qirg`iziston	4,9	4,9	0,0	1,7	190,0 b
Ukraina	4,7	1,0	3,7	1,6	2,1 b
Latviya	3,3	0,1	3,3	1,2	3,7 b
Afgoniston	2,8	2,8	0,0	1,0	147,2
Belgiya	2,3	0,0	2,3	0,8	129,1
Litva	2,2	0,1	2,1	0,8	4,0 b
Belarus	1,2	0,0	1,2	0,4	55,3
Arabiston	0,9	0,0	0,9	0,3	157,2
Pol'sha	0,9	0,2	0,7	0,3	3,4 b
Pokiston	0,7	0,0	0,7	0,3	65,4
Fransiya	0,7	0,0	0,7	0,2	13,2 b

2019-yilning yanvar-mart oyi yakuni bo`yicha tovarlar eksporti bilan shug`ullanuvchi korxonalar soni o`tgan yilning mos davriga nisbatan 42 taga ko`payib, 160 taga yetdi.

### Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi (yanvar- mart, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma`lumotlar ko`rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o`sganligini ko`rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-mart oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o`tgan yillarga nisbatan ko`payib, 61,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



**Tashqi savdo aylanmasining eksport va import ulushi, %  
(yanvar- mart)**

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,6 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 % tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning, viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-mart oyida 33,1 % ni tashkil qilgan bo'sha, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 45,4 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,7 % ga o'sdi.

**Buxoro viloyatining  
ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln. AQSH dollar'i)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar- mart
Rossiya	27,3	145,0	80,3
eksport	4,5	4,6	6,7
import	22,9	140,4	73,6
saldo	-18,4	-135,8	-66,9
Turkmaniston	11,2	28,2	57,3
eksport	0,8	0,3	1,5
import	10,4	27,8	55,8
saldo	-9,7	-27,5	-54,4
Xitoy	9,5	41,8	45,8
eksport	6,1	13,3	9,7
import	3,4	28,5	36,2
saldo	2,7	-15,2	-26,5
Eron	18,4	24,8	33,4
eksport	17,4	23,0	26,2
import	1,4	1,8	7,2
saldo	16	21,3	18,9
Turkiya	1,4	4,3	13,7
eksport	0,9	0,5	1,3
import	0,6	3,8	12,4

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar- mart
saldo	0,3	-3,3	-11,2
<b>Qozog`iston</b>	<b>3,1</b>	<b>5,0</b>	<b>9,2</b>
eksport	0,9	1,2	4,8
import	2,2	3,8	4,3
saldo	-1,4	-2,6	0,5
<b>Germaniya</b>	<b>0,6</b>	<b>6,4</b>	<b>7,4</b>
eksport	-	-	-
import	0,6	6,4	7,4
saldo	-0,6	-6,4	-7,4
<b>Koreya</b>	<b>0,3</b>	<b>1,6</b>	<b>7,1</b>
eksport	0,1	0,2	0,1
import	0,2	1,4	7,0
saldo	-0,1	-1,2	-6,9
<b>AQSH</b>	<b>-</b>	<b>0,1</b>	<b>5,7</b>
eksport	-	-	-
import	-	0,1	5,7
saldo	-	-0,1	-5,7
<b>Qirg`iziston</b>	<b>0,1</b>	<b>-</b>	<b>4,9</b>
eksport	0,1	-	4,9
import	-	-	-

(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar- mart
saldo	0,1	-	4,9
<b>Ukraina</b>	<b>1,0</b>	<b>2,2</b>	<b>4,7</b>
eksport	0,2	0,1	1,0
import	0,8	2,1	3,7
saldo	-0,6	-2,0	-2,7
<b>Latviya</b>	<b>3,2</b>	<b>0,9</b>	<b>3,3</b>
eksport	1,0	-	0,1
import	2,1	0,9	3,3
saldo	-1,1	-0,9	-3,2
<b>Afgoniston</b>	<b>12,3</b>	<b>1,9</b>	<b>2,8</b>
eksport	12,3	1,9	2,8
import	-	-	-
saldo	12,3	1,9	2,8
<b>Belgiya</b>	<b>0,3</b>	<b>1,8</b>	<b>2,3</b>
eksport	-	-	-
import	0,3	1,8	2,3
saldo	-0,3	-1,8	-2,3
<b>Litva</b>	-	<b>0,6</b>	<b>2,2</b>
eksport	-	0,1	0,1
import	-	0,5	2,1


(mln. AQSH dolları)

Davlat nomi	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar- mart
saldo	-	-0,4	-2,0
<b>Belarus</b>	<b>0,8</b>	<b>2,2</b>	<b>1,2</b>
eksport	-	-	-
import	0,8	2,2	1,2
saldo	-0,8	-2,2	-1,2
<b>Arabiston</b>	<b>0,1</b>	<b>0,6</b>	<b>0,9</b>
eksport	0,1	0,6	-
import	-	-	0,9
saldo	0,1	0,6	-0,9
<b>Pol'sha</b>	<b>-</b>	<b>0,3</b>	<b>0,9</b>
eksport	-	0,2	0,2
import	-	-	0,7
saldo	-	0,2	-0,5
<b>Pokiston</b>	<b>0,1</b>	<b>1,1</b>	<b>0,7</b>
eksport	0,1	0,2	-
import	-	0,9	0,7
saldo	0,1	-0,7	-0,7
<b>Fransiya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,1</b>	<b>0,7</b>
eksport	-	-	-
import	0,1	0,1	0,7
saldo	-0,1	-0,1	-0,7

## EKSPORT

2019-yil yanvar-mart oyida eksport hajmi 61,5 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 26,1 %) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 77,6 % ulushga ega bo`lib, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (11,1 %), energiya manbalari va neft mahsulotlari (2,6 %) to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (2,3 %), ,ni tashkil qiladi.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi**  
(mln.AQSH.dollari)



2019-yilning yanvar-mart oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, lekin 2019-yilning yanvar-mart oyida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmida ayrim turdag'i tovar va izmatlarda o'sish sur'atlari qayd etildi.

### Eksport tarkibi

*(2019-yil yanvar-mart)*

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %
<b>Jami eksport</b>	<b>61,5</b>	<b>126,1</b>	<b>100,0</b>	<b>19,6</b>	<b>3,1 b</b>	<b>100,0</b>	<b>41,9</b>	<b>98,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Paxta tolasi</b>	33,6	97,9	54,7	-	-	-	33,6	97,9	80,4
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	11,1	5,8 b	18,1	9,6	8,0 b	49,0	0,9	128,6	2,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	0,4	133,3	0,6	0,4	133,3	0,02	-	-	-
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	2,6	152,9	4,2	0,3	-	1,5	2,3	93,7	5,5
<b>Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	0,05	-	0,1	0,05	-	0,3	-	-	-
<b>Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	-	-	-	-	-	-	-	-	-
<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	0,05	-	0,1	0,05	-	0,3	-	-	-
<b>Xizmatlar</b>	3,1	93,9	5,0	2,1	2,8 b	10,7	0,9	60,0	2,2
<b>Boshqalar</b>	10,6	149,3	17,3	7,1	2,7 b	36,2	3,4	100,0	8,1

### **Eksport tarkibi dinamikasi**

*(mln. AQSH. dollarri)*


Tarkibi	2015-yil yanvar-mart	2016-yil yanvar- mart	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar- mart	2019-yil yanvar- mart
Jami	90,2	51,6	52,3	48,6	61,5
Paxta tolasi	41,5	-	27,0	34,3	33,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,6	1,7	2,2	1,9	11,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,3	0,3	0,4	0,3	0,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	5,8	12,7	13,4	1,7	2,6
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	-	-	-	-	0,05
Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	2,5	1,0	-	-	-
Mashina va asbob- uskunalar hamda ularning qismlari	-	-	-	-	0,05
Xizmatlar	18,4	19,5	2,5	3,3	3,1
Boshqalar	20,4	16,5	6,7	7,1	10,6

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-mart oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 mln. AQSH dollariga ko`p eksport qilindi va 58,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 3,1 mln. AQSH dollarga yetgan.

**2019-yilning yanvar-mart oyida eksport qilingan  
ayrim turdag'i mahsulotlar tarkibi**  
(mln. AQSH. dollari)


	mln. AQSH dollarlari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollarlari	o'tgan yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
meva mahsulotlari	3,4	17,0 b	alkagolli va alkagolsiz ichimliklar	0,3	150,0
sabzavot mahsulotlari	6,2	5,2 b	qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	0,6	150,0
bug`doy	0,4	-			
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>					
plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	0,03	-	farmasevtika mahsuloti	0,2	2,0 b
kimyoiy shtapelli tola	0,02	40,0	korbonat	0,1	31,2
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>					
qayta ishlangan boshqa naft mahsulotlari	2,6	162,5			
<b>Qora va rangli metallar</b>					
qora metallardan tayyorlangan bosma va dag`al buyumlar	0,05	-			
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>					
elektr zanjirlarni almashtirish yoki himoya qilish jihozлari	0,05	-	avtomobillar uchun ehtiyoq qismlar va jihozлari	0,01	-
<b>Boshqalar</b>					
			shisha va shisha buyumlar	0,8	2,0 b
to`qimachilik mahsulotlari	0,9	100,0	oyoq kiyim, getra va ularning qismlari	0,02	-
charm xom-ashyosi, charm va jun, ulardan ayyorlangan buyumlar	0,02	-	daraxtlar va boshqa o`simliklar	0,5	-

**2019 yilda MDH va boshqa xorijiy davlatlarning  
tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi %  
(oylar kesimida, mln. AQSH dollarri )**




**Viloyat eksportida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi %**

**2018 yil  
yanvar-mart**




**2019 yil  
yanvar-mart**



Eron	Eron
Xitoy	Xitoy
Rossiya	Rossiya
Qirg'iziston	Qirg'iziston
Qozog'iston	Qozog'iston
Afg'oniston	Afg'oniston
Turkmaniston	Turkmaniston

Xizmatlar eksporti hajmi 3,1 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 5,0 % ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 93,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari transport xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to`g`ri keladi.





### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-mart oyida jami 17,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 9,6 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o`sish sur`ati - 7,2 b %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-mart oyida 15,6 ming tonna sabzavotlar 6,2 mln. AQSH dollariga yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 mln. AQSH dollarigan ko`p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,6 ming tonna meva va rezavorlar 3,4 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo`lib, eksport hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 ming tonnaga ko`pdir.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi, (ming tonna)




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-mart oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 9,6 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 b ga o'sgan).

Mustaqillikka erishgan ilk yillarda viloyatimiz yengil sanoatida faqatgina paxta xom-ashyosi eksport qilingan bo`lsa, hozirda esa tayyor to`qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari yetkazib beruvchi eksportyor sifatida dunyo iqtisodiyotida o`z o`rnini egallab kelmoqda.


## IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oyida import hajmi 228,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 1,7 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbaalari (52,1 %), mashina usrunalari( 27,0 %),kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (4,2 %) hamda qora va rangli metallar (1,1 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**  
(yanvar-mart holatiga, mln.AQSH dollar)



**2019 yil  
yanvar-mart**



Oziq-ovqat mahsulotlari

Kimyo mahsulotlari va buyumlar

Energiya manbaalari va neft mahsulotlari

Mashina va asbob-uskunalar Boshqalar

Qora va rangli metallar

Shu bilan birga ta`kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning yanvar-mart oyi mobaynida viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar fevral' oyiga nisbatan 0,8 mln. AQSH dollarga ko`p import qilindi va 228,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

### Import tarkibi

(2019-yil yanvar-mart)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dolları	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSH dolları	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSH dolları	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>228,7</b>	<b>101,5</b>	<b>100,0</b>	<b>138,8</b>	<b>78,6</b>	<b>100,0</b>	<b>89,9</b>	<b>184,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	4,6	128,1	2,0	3,8	139,3	2,7	0,8	91,2	0,9
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	10,8	149,2	4,7	2,5	2,6 p	1,8	8,3	131,9	9,3
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	119,0	78,6	52,1	118,9	78,6	85,7	0,08	5,3 6	0,1
<b>Qora metallar</b>	2,4	69,4	1,1	1,7	164,2	1,2	0,7	27,5	0,8
<b>Rangli metallar</b>	0,08	51,5	0,03	0,06	37,3	0,04	0,02	3,6 6	0,02
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	61,5	152,9	27,0	3,9	37,8	2,8	57,6	192,9	64,4
<b>Boshqalar</b>	29,5	169,6	13,0	7,9	120,0	5,7	21,6	199,7	24,7

### **Import tarkibi dinamikasi**

*(mln. AQSH dollar)*

Tarkib	2015-yil yanvar-mart	2016-yil yanvar-mart	2017-yil yanvar- mart	2018-yil yanvar- mart	2019-yil yanvar- mart
<b>Jami</b>	<b>33,6</b>	<b>92,6</b>	<b>46,7</b>	<b>224,9</b>	<b>228,7</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1,7	0,8	0,9	3,6	4,6
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	6,1	4,4	3,6	7,3	10,8
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	8,4	69,9	29,3	151,4	119,0
<b>Qora metallar</b>	<b>2,4</b>	<b>1,5</b>	<b>3,1</b>	<b>4,6</b>	<b>2,4</b>
<b>Rangli metallar</b>	0,03	-	0,04	0,1	0,1
<b>Mashina va asbob- uskunalar</b>	9,8	11,8	6,6	40,2	61,5
<b>Xizmatlar</b>	3,1	-	0,2	0,2	0,2
<b>Boshqalar</b>	<b>2,1</b>	<b>4,2</b>	<b>3,0</b>	<b>17,4</b>	<b>29,5</b>

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2019-yilning yanvar-mart oyi mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 mln. AQSH dollariga kam import qilindi va 228,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,2 mln. AQSH dollarga yetgan.

**2019-yilning yanvar-mart oyida import qilingan ayrim turdag'i mahsulotlar tarkibi**

	mln. AQSH dollarlari	o'tgan yilga nisbatan, %		mln. AQSH dollarlari	o'tgan yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>					
un	0,2	2,2 b	go'sht va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	0,03	
tayyor hayvon yemi	0,8	91,5	margarin	6,6	94,3
choy	0,01	127,1	situs mevalar	0,5	3,8 b
kartoshka	0,02	15,6			
<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>					
farmasevtika mahsulotlari	0,1	49,5	o'simliklarni o'stirish regulyatorlari	0,2	8,6 b
plastmassa va plastmassa buyumlar	3,9	136,3	kimyoviy zarralar	0,2	73,9
kauchuk va rezina mahsulotlari	0,4	195,9	kimyoviy shtapelli tola	0,2	98,2
organik kimyo birikmalari mahsuloti	1,1	2,4 b	kimyoviy va mineral o'g'itlar	0,2	8,5 b.
parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari	0,4	3,6 b	bo'yoq ekstraktlari	0,5	152,7
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>					
neftni qayta ishlash mahsulotlari	118,8	78,5	aglomerlanmagan lignit yoki jigarrang ko'mir	0,02	93,2
neft xom-ashyosi	107,1	80,2	elektroenergiya	7,2	134,8


Qora va rangli metallar					
qora metall va undan tayyorlangan buyumlar	2,8	45,1	rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar	0,07	69,7
Mashina va asbob-uskunalar					
avtomobil uchun ehtiyoj qismlar va buyumlar	1,9	-	suzuvchi apparatlar	0,03	3,7 b
to`qimachilik tolasini qayta ishlash mashinalari	0,3	146,7	kir yuvish va idish yuvish mashinalari, quritgichlar, sentrafugalar	0,6	4,0 b
yuk avtomobillari va maxsus avtomobillar	16,4	4,4	tibbiy asbob-uskunalar	0,3	3,2
kondisionerlar, sovutkichlar, muzlatkichlar va isitgichli uskunalar	20,0	6,3	shinalar va pokrishkalar	0,05	46,2
qishloq xo`jaligi mashinalari va boshqa uskunalar	3,9	17,5 b			
Boshqalar					
yog`och va yog`och buyumlar	3,4	81,7			
qog`oz, karton va chop etilgan buyumlar	2,7	2,1 b	shisha va shishadan tayyorlangan buyumlar	1,0	98,9
sement	2,7	8,0 b	qimmatbaho bo`limgan metalldan ishlangan oshxona asbob-anjomlari	1,1	2,8 b
rangli metall konsentrlari va rudalari	0,1	90,3	o`rindiq mebellar	17,0	8,5 b.
tosh, gips va keramik buyumlar	0,2	3,0 b.	o`yinchoqlar, o`yinlar va sport anjomlari	0,4	5,7 b.
qurilish majmualari konstruksiysi	9,5	125,9	yirik shoxli mollar	8,8	5,7 b.

**Buxoro viloyatida  
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi  
(yanvar-mart)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollarri		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	140,4	73,6	6,1 b	52,4	1	1
Turkmaniston	27,8	55,8	2,6 b	2,0 b	3	2
Xitoy	28,5	36,2	8,4 b	127,0	2	3
Turkiya	3,8	12,4	6,3 b	3,3 b	4	4
Eron	1,8	7,2	2,0 b	4,0 b	8	5
Kopea Respublikasi	1,4	7,0	3,5 b	5,0 b	10	6
AQSH	0,1	5,7	3,3 b	57,0 b	14	7
Qozog`iston	3,4	4,3	1,5 b	126,5	5	8
Ukraina	2,1	3,7	2,6 b	176,2	7	9
Latviya	0,9	3,3	41,0	3,7 b	11	10
Bei'giya	1,8	2,3	6,0 b	127,8	9	11
Litva	0,5	2,1	-	4,2 b	13	12
Belarus	2,2	1,2	3,1 b	54,5	6	13
Arab amirligi	-	0,9	-	-	19	14
Franciya	0,03	0,7	75,0	23,3 b	17	15
Pol'sha	0,02	0,7	33,3	35,0 b	20	16
Pokiston	0,9	0,7	22,5 b	77,8	12	17
Niderlandiya	0,05	0,6	25,0 b	12,0 b	16	18
Hindiston	0,1	0,6	142,9	6,0 b	15	19

**MDH va Boshqa xorijiy davlatlarning tovar  
va xizmatlar importidagi hajmi  
(yanvar-mart)**


(mln. AQSH dollarri)




■ MDH davlatlari      ■ Boshqa davlatlar

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi, %**

**2018 yil  
yanvar-mart**



**2019 yil  
yanvar-mart**



Rossiya	Rossiya
Turkmaniston	Turkmaniston
Xitoy	Xitoy
Turkiya	Turkiya
Eron	Eron

2019-yilning yanvar-mart oyida viloyatda 40 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo`lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Eron va Turkiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 185,2 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,2 % ini tashkil qildi.

### **Qurilish materiallari importi tarkibi**

Yuqoridagi infografikadan ko`rinib turibdiki, 2019-yilning yanvar-mart oyida qurilish materiallari import hajmi 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Qurilish materiallari importi hajmining o`sishiga viloyatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, xususan, keng ko`lamdagি qurilish-rekonstruktsiya ishlarini amalga oshirilishi sabab bo`lmoqda.

2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida 9,5 mln. AQSH dollari miqdorida qurilish materiallari importi hajmi amalga oshirildi. Bu ko`rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan 125,9 % ga o`sib, umumiy import hajmining 4,2 %ini tashkil qildi. Import qilingan Qurilish materiallari tarkibidan Sement (28,4 %), Yog`och va yog`och mahsulotlari (35,8 %), hamda shisha va shisha buyumlar (10,5 %) asosiy ulushni egallagan.

### **Qurilish materiallari importi tarkibi (2019 yil yanvar-mart holatiga)**



Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to`yintirish bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-83-22**